



O'ZBEK AYOLLARIGA XOS PSIXOLOGIYA

¹Axmedova Sarvinoz Alimardon qizi

Qoraqalpoq davlat universiteti 2-bosqich talabasi,

²Tangriberganova Orzugul Dilmurod qizi

1-bosqich talabasi.

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7776836>

ARTICLE INFO

Received: 19th March 2023

Accepted: 27th March 2023

Online: 28th March 2023

KEY WORDS

Obraz, bosh qahramon, ruhiyat, tahlil.

ABSTRACT

Ushbu maqolada o'zbek ayollarining ruhiy holati, ichki kechinmalari Zulfiya Qurolboy qizining "Ayol" hikoyasi misolida tahlil qilinib, undagi bosh qahramon Nazokat obraziga ham e'tibor qaratilgan. Shuningdek, maqolada ayollarga xos xususiyatlar boshqa asarlarda qaysi tomonlari yoritilgani haqida so'z boradi.

Hozirgi o'zbek adabiyotimizda ayollarning xarakteri, ichki dunyosini o'z asarlarida gavdalantirgan ijodkorlar ancha. Masalan: Abdulla Qodiriy, Pirmqul Qodirov, Chingiz Aytmatov, O'tkir Hoshimov va Javlon Jovliyevning sarlarida ko'rishimiz mumkin. Shu o'rinda Zulfiya Qurolboy qizining "Ayol" hikoyasini ham misol sifatida keltirishimiz mumkin. Bu asarda ismi jismiga mos Nazokat obrazi orqali barcha o'zbek ayollariga xos xarakterlar ochib berilgan. Nazokat qiynalayotgan bo'lsa ham turmush o'rtog'iga buni bildirmaslikka intiladi: "Aft-angorimga qarang, yaxshilab qarang, men yaqin-o'rtada o'ladigan odamga o'xshaymanmi? O'zimni har qachongidan yaxshiroq his etyapman."

Nazokat bardoshli. Eng muhimi har qanday vaziyatda ham o'zini yo'qotib qo'ymaydi. "Hali kuchim bor, o'zim yura olaman, - dedi Nazokat g'alati qarab." [1] U kasal bo'lishiga qaramasdan turmush o'rtog'iga sog'dek ko'rinishni xohlaydi. Hamon turmush o'rtog'iga bo'lgan muhabbati yo'qolmagan. Tanasi shishib ketgan bir paytda turmush o'rtog'ining xonasiga kirmasligini doktor ta'qiqlab qo'yishini iltimos qiladi. "Erim kelsa ichkariga kiritmang, iltimos" [1] U turmush o'rtog'ining uni bunday holatda ko'rinishini istamaydi. U doimo pardozi qilar, o'ziga qarab yurardi. "Nazokat jilmaydi. Keyin yostig'i ostidan upa-elikni oldi...". Turmush o'rtog'i ongida go'zal bo'lib qolishni istaydi. Hatto, joni og'risada shishga sababchi bo'lgan suvni oldiradi. "Doktor... - Nazokat barmog'idagi tilla uzukni vrachning cho'ntagiga soldi. - Suvni oling, iltimos. Faqat oxirigacha!" Bu jihatdan esa Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" (Kumush) asariga o'xshaydi. «Kumush ko'zini ochib besaranjom unga nazar tashladi va tanib... qo'zg'almoqchi bo'ldi.» [2;376] O'zining holati yomon bo'lishiga qaramay o'zini to'g'irlashga harakat qiladi. Romanda Kumush jon berish jarayonida qaynotasining hurmati uchun o'rnidan qo'zg'almoqchi bo'ladi. Bu asarning o'xshash jihati shundaki, ikkalada asarda ham turmush o'rtog'iga bo'lgan vafodorlik, mehr-muhabbat, qiyinchiliklarga sabr- bardoshliligi jihatidan o'xshaydi. Kumush ham Nazokat ham hayotdan xunuk bo'lib ketishni, kimningdir rahmini keltirishni istamaydi. "Oyi... dada...- so'ngra,- begim,- deb ingrandi. Erining yuziga yuzini qo'ydi, uyalg'ansimon ko'zini



yumdi..."[2;376]Kumush bunday holatda o'lim topayotganidan uyaladi. O'zbek ayollariga xos uyalchanglik, eriga bo'lgan hurmat shunda ko'rinadi.

O'zbek ayollari matonatli, bardoshli, sabrli, vafodor bo'lishadi. Ular o'zlari qanday kayfiyatda bo'lishlaridan qat'i nazar yon-atrofidagi insonlarga buni bildirishmaydi. Sir tutishadi. "O'tin tegib ketdi, - dedi onam, sekingina. - Qarasam, o'tin o'lgur qolmabdi. Bolalar o'qishda, adasi ishdalar. Ko'zliroq sarjan ekan, tesha bilan urganimni bilmabman". [3;35] Ayol har qanday vaziyatda ham o'z dardini o'zga insonga aytmaydi. O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" (Qanoat)da ayol o'z turmush o'rtog'idan kaltak yegan bo'lsa-da, oilasida kamchiliklar bo'lsa ham nolib kimgadir aytgan emas. Eng muhimi ayol qanoatli. Bu kunlar ham boshqa kunlardek o'tishligini, go'zal hayot oldindaligini biladi va hech qachon tushkinlikka tushmaydi. "Sovuq yegani yo'q, - dedi sekin. - Qaytaga isib ketdi. Qorda o'zi isib ketadi" [3;16] Ayollar yaqinlarining xavotir olmasliklari uchun, hatto, yolg'on so'zlashadilar. Boshqa asrlarda ayollarning boshqa xislatlari tasvirlangan. Masalan, O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asarini olaylik. Bunda Robiya obrazi jasoratligi bilan ko'zga tashlanadi. U erkaklarning vazifasi bajaradi: "Po'tak tashlangan temir egarga minib olib MTSning qor bosgan hovlisida traktor haydab ketyapman." [4;211] Robiya qiz boshi bilan traktor haydaydi. Chunki qishlog'idagi barcha erkaklar urushga ketgandi. Bu jasorat Pirmqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" asarida ham uchraydi. Bu asarda Shayboniyxon bilan shoh va shoir bo'lgan Bobur o'rtasida jang bo'ladi. Jangda Boburning yurti qamalda qoladi. Shunda Shayboniyxon Boburning opasi Xonzoda begimni o'ziga qayliq sifatida berishlarini talab qiladi. Shu orqaligina qamalni to'xtatishini aytadi. Xonzoda, afsuski, o'zini Shayboniyxonga qurbon qiladi. "Xonzoda begim o'kirib yig'lab yubordi:

- Ne qilay? Boshqa najod yo'q! Yo'q!!!" [5;259]

U Boburning hayotini saqlab qolishi uchun o'zini qurbon qiladi. Bu esa Xonzodaning jasoratidan, ukasiga bo'lgan mehridan dalolat beradi. Ammo ba'zi asarlar borki, ularda ayolning o'zligi, o'ziga bo'lgan e'tiborsizligi, oilada o'rnini yo'qotganligi namoyon bo'ladi. "Ayol qorayib, yorilib ketgan qo'llari bilan har bir niholni avaylab, ortiqcha o'tlardan tozalardi" [6] Asarda ayolning o'zini sevmasligi, o'ziga e'tiborsizligini ko'rishimiz mumkin. U, hatto, oilasida ham o'z o'rnini, hurmatini yo'qotgan. "Ayol oshni suzib kelganda bolalar onasiga yozg'ira boshladi:

- Shunaqa ham kech pishirasizmi? Hademay fudbol boshlanadi-ku" [6] Bu asarda ko'rishimiz mumkin-ki, bola onasini fudboldan ham afzal ko'ryapdi. Barchasiga ayolning o'zi sababchi. Chunki o'ziga e'tibor bermaydi. Oila-a'zolari uning tug'ilgan kunini ham unitib qo'yishadi. "Ayol yig'i aralash ovozd:

Tug'ilgan kunim....tug'ilgan kunim....qutlug' bo'lsin! - deya achchiq suvni ko'zini chirt yumgancha ichib yubordi" [6] Ayolning o'ziga e'tiborsizligi, o'zini sevmasligi bunday vaziyatlarni keltirib chiqargan. Bunday ayollar jamiyatimizda ham yo'q emas. Bu hayotiy asardir. Adabiyotshunos Hotam Umarov ta'kidlaganidek, "Yozuvchi hayot haqiqatiga o'xshash narsa (badiiy haqiqat)ni yaratish uchun, hayotiy fakt va hodisalarni o'zining ruhiy laboratoriyasida "qaynatishi", ishlashi, sintezlashtirishi, ya'ni g'oyaga xizmat qiluvchi eng zarur detallarni, xarakterli va kerakli fakt va hodisalarni tanlagan holda tugallik kasb etgan hayotni kasb etishi lozim". [7]



Shuni ta'kidlash joizki, ayollar xarakterining yuzaga chiqishiga muhitning, davrning o'z o'rnini bor. Agar Boburning hayoti xavf ostida bo'lmaganida Xonzoda boshlangan ukasiga nisbatan mehri, jasorati namoyon bo'lmasdi. Yoki O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asarida erkaklar urushda ishtirok etmaganida Robiyaning matonati yuzaga chiqmasdi. Shuningdek, Zulfiya Qurolboy qizining "Ayol" hikoyasidagi esa Nazokat obrazi eriga bo'lgan muhabbati uni tanasidagi shishga sababchi bo'lgan suvni oldirishga undaydi. Bu ham jasorat. Hech bir hislat, xarakter o'zidan o'zi paydo bo'lmaydi. Unga vaziyat yoki davr sababchi bo'ladi.

References:

1. Zulfiya Qurolboy qizi "Ayol" -- Toshkent. Gafur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa- uyi. 2005.
2. Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" --- Toshkent. "Sharq". 2007. B 376.
3. O'tkir Hoshimov Dunyoning ishlari -- Toshkent. B 16,35.
4. O'tkir Hoshimov "Ikki eshik orasi" -- Toshkent. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa uyi 2018. B 211.
5. Pirmqul Qodirov "Yulduzli tunlar" --- Toshkent "Adabiyot uchqunlari" 2018. B 259.
6. Javlon Jovliyev "Ayol" Oila davrasida "gazetasi 2017.
7. Umarov. H. "Badiiy ijod asoslari" -- Toshkent. "Ozbekiston" 2001.